TASVIRIY SAN’ATDA RANG TASVIR MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA PORTRET ISHLASHNI TASHKIL ETISH

O‘g‘iloy Xudoynazarova,
A.Qodiriy nomidagi JDPI
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash va rangtasvirda portret ishlash mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish borasida so‘z boradi. Talabalarga rangtasvirda portret ishlash mashg‘ulotlarida zamonaviy pedagogik tehnologiyalarini qo‘llagan holda dars o‘tish borasida amaliy maslahatlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Rangtasvir, kompozitsiya, realistik, innovatsion, janr, kolorit, plastik anatomiya, perspektiva.

Tasviriy sanatda portret - inson obrazini yaratishda eng murakkab janr hisoblanib, bu janrning kelib chiqishi, uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Eramizdan avvalgi I-III asrlarda qadimgi Misrdagi Fayyum shaharchasidan rangtasvirning mum usulida bajarilgan portret rasmlar topilgan. Bu janrda Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari Mahmud Muzahhih, Qosim Ali hamda boshqalar rangtasvirning miniatyura uslubida samarali ishlaganliklari tarixdan ma’lum. Ular portret asarlarida zamondoshlarning go‘zal qiyofasini obrazlarini yaratib, keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan.

Har xil tarixiy davr rassomlari portret san’atining vazifasini turlicha tushunishgan. Buni o‘sha davrga taaluqli badiiy tasvirlash materiallarining nozik tomonlari imkoniyatidan qay darajada foydalana olganligi va o‘zlashtirgan bilimlariga qarab, o‘xshashlik xususiyatlariga tayangan holda, tasvirning shartliligi asoslangan o‘z davrining buyuk, ilg‘or namoyondalari obrazlarini yaratishi misolida ko‘rish mumkin.

Masalan, qadimgi Gretsiyada mimika va ko‘z qarashlari jonsiz portretlar ishlangan bo‘lsa, Rim rassomlari dekorativlik bilan uyg‘unlashib ketgan realistik usulda aniq xarakter va psixologik xususiyatlarga obrazlar yaratishgan.

Yuksak darajada bajarilgan, jozibador obrazlar tasvirlangan diniy mavzulardagi asarlarni biz cherkovlar uchun ishlangan devoriy rasmlarda uchratamiz. Aniq odamlar tasviri ham ikona ramzlari bo‘lib, shu bilan birga ularda insonlarning ichki dunyosi, ruhiyati o‘z aksini topib turadi.

Uyg‘onish davrida insonlarning dunyoqarashi san’atdagi vazifalar o‘zgarishi; plastik anatomiyaning ilmiy asoslari va perspektiva qonunlarining o‘zlashtirilishi natijasida ma’naviy ideallar ham o‘zgara bordi. Bu vaqtda tuslar uyg‘unligi deb nomlangan yangi ranglar uyg‘unligi tizimi vujudga keldi. U rassomlar oldida portret ishlashdagi realistik mazmunni bera olish imkoniyatini tug‘dirdi. Bu bilan uyg‘onish davri pedagogikasi ham, asosida ko‘z qarashlari qabul qilishining optik qonunlari yotadigan, ko‘pincha realistik portretning tuzilishi va xarakterini belgilaydigan, modelni aniq va ishonarli ifodalashga yo‘naltirilgan tasvirlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqib, yangi g‘oyalarni oldinga surdi.

Barakko rangtasvirchilari portretga o‘ziga xos tasirga ega bo‘lgan yorug‘likdan keng foydalana boshlashdi. Bu usul esa butunlay naturadan ishlash usuliga tayanadigan, portretdagi har xil hissiyotli holatlarni portret rangtasvirining o‘ynaqaroq ranglarga boy bo‘lishiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

XVIII asrga kelib portretda insonning ichki dunyosi tashqi qiyofasidan ajralib, aristokratlar va saroy a’yonlari portretlarida ularning ichki dunyosi ochib berilmay balki tashqi yasama ko‘rinishlari katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Eski rangtasvir maktabi natura shakli va materialini tasvirlashda o‘zining yuqori cho‘qqisiga yetdi.

XIX asrning 70 - 80 yillarida ijod qilgan rassomlarda esa portret san’atiga boshqacha yondashishni kuzatish mumkin. Bu yo‘nalishda ijod qilgan rassomlar

naturadan rangtasvir koʻrinishlarini dekorativ tasvirlovchi, oʻsha paytning eng yaxshi kolorictlari hisoblangan rus rangtasvir maktabining tarbiyalanuvchilari M.A. Vrubel, K.A. Korovin, B.M. Kutsodiev va boshqalar edi. XIX asr oxirlarida butun Rus tasviriy san'atining ijtimoiy –psixologik an'analari asosida tarbiyalangan V.A. Serovning portretlari butun rus san'ati uchun muhim hodisa boʻldi.

XIX-asrga kelib tasvirlanayotgan shaxsdagi oʻziga xos, qaytarilmas xususiyatlari, shaxsiyatning atrof - muhit bilan bogʻliqlik tomonlarini ochib beradigan realizm usuli portretdagi obrazlar xarakterini butunlay oʻzgartirdi. Rassomlar oʻzaro raqobatlashib, rangtasvirdagi obrazlar echimining yanada jozibali, maftunkor, nozik tomonlarini topish uchun har doim tarixdagi barcha rangtasvir tizimini qaytadan oʻrganib yangi vositalar ustida tinmay izlanishlar olib borishardi. Impressionistlarning ishlari esa rangtasvirda yangi yoʻnalishning kashf etilishiga sabab boʻldi. Natijada portret rangtasvirida ranglar uygʻunligi va jozibadorligi bilan bogʻliq bizning davrimizgacha etib kelgan murakkab muammoni yuzaga keltirdi. Impressionistlarning yangicha ranglarni qabul qilish madaniyatida, tasvirlanayotgan inson obektini havo va quyosh nurlari orqali ranglar jilosida koʻrib, yorugʻlik va havo, ranglarning reflekslari, qarama qarshiligining oʻzaro uygʻunligini his etishga asosiy diqqat e'tibor qaratildi.

Rus rangtasvirida inson shaxsiyatining badiiy jihatlarini gavdalantira oladigan yangi tushunchalar portret janrini yuqori darajaga koʻtardi. Portretchi rassomlar inson shaxsiyati xususiyatlari, oʻziga xos xarakterini chuqur oʻzlashtirdilar, lekin kompozitsiyadagi harakatni, mahalliy koloritni bera olish, dekorativ tekisliklarni talqin qilish va badiiy tasvirlash tilini oʻzlashtirishga ancha qiynalar edilar. Shunga qaramay rassomlar tana tuzilishi, yuz ifodasini yaxshi tushunganlar va toʻgʻri tasvirlay olganlar, tasvirlanayotgan portretning tashqi koʻrinishi va jamiyatdagi oʻrnini ifodalashga uringanlar, bu esa oʻz oʻrnida realistik an'analarning rivojlanayotganligi va mustahkamlanib borayotganligidan darak beradi.

Ma’lumki, inson portretini tasvirlashda, uni jonli tarzda shakllantirishda plastik anatomiyaga oid ma’lumotlarni mukammal bilishlari lozim.

Hozirgi paytda tasviriy san’atga taaluqli barcha o‘quv yurtlarining o‘quv dasturida ham portret ishlash mashg‘ulotlariga bo‘lgan e’tibor nazardan chetda qolgan emas. Talabalarga portret chizishni o‘rgatishdan asosiy maqsad, zamondosh insonlar, tarixiy shaxslarning go‘zal va takrorlanmas, har bir kishining o‘ziga xos tashqi qiyofasi, xarakteri, ichki dunyosini ochib beruvchi qiyofalarini jonli va ishonarli aks ettirishni, ulardagi qog‘oz yoki matolarda har xil tasvirlash vositalari orqali ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy malakalarini oshirishdan iborat. Shunday ekan talabalar tasviriy san’atning bu janrini o‘rganishiga nisbatan alohida e’tibor va diqqatni qaratish, portret ishlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish hamda amaliy mashg‘ulotlar jarayoniga tadbiq etish hozirgi paytda ham aktual muammo bo‘lishi kerak.

Hozirgi kunda talim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, talimning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, etibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘quv tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talabadan ko‘proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Mashg‘ulot quyidagi tartibda olib boriladi.

• Rangtasvirda portret ishlash uchun qiyofachi holati tanlanadi.

• talabalar 3 tadan 3 guruhga bo‘linadi

• mashg‘ulotni o‘tkazish uchun qo‘yilgan talablar va qoidalar talabalarga tanishtiriladi

• 30 daqiqa ichida talabalar qo‘yilmaning tezkor ranglavhasini ishlab bo‘lishlari kerak.

• o‘quv qurollari bilan taminlanganligi o‘qituvchi tomonidan kuzatib chiqiladi.

• portretni ishlashda e’tibor berishlari kerak bo‘lgan qonun-qoidalar

(joylashtirish, soya, yorug‘, ranglarning topilishi, qiyofachining qay darajada o‘ziga xos xarakteri ranglar orqali ifodalanishi va h...) aytib o‘tiladi.

• har bir guruh talabalari yakka holda portretni ishlashadi.

• chizish uchun vaqt fursati etgandan so‘ng ishlash to‘xtatiladi va ishlar bir tomonga qo‘yish taklif qilinadi.

• guruhdan tashqari qolgan talabalar orasidan 3 kishi o‘qituvchi tomonidan tanlab olinadi va ular chizilgan ishlarga o‘z munosabatini, yutuqlari va kamchiliklari hamda eng yaxshi ishlangan ishni topishlari so‘raladi.

• jamoa fikrlari o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi. Har bir ishlangan ish tahlil qilinadi va yutuq va kamchiliklar aytiladi hamda 1, 2, 3-o‘rinlar aniqlanadi, shu bilan birga talabalar baholanib, mashg‘ulot yakunlanadi.

Shu tarzda mashg‘ulot o‘tkazishning qulaylik tomonlari shundan iboratki, bunda talabalarning ijodiy faolligi oshadi, eng muhimi ranglavha ishlashdagi tezkor fikrlash va bajarish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Pedagogik texnologiya uslublaridan unumli foydalangan holda, rangtasvirda portret ishlash mashg‘ulotlarini tashkil qilishda, zamonaviy kampyuter texnologiyalari orqali ijodkor rassomlarimizning ijod namunalari va «mahorat darslari» aks ettirilgan video roliklarni ko‘rsatish bilan talabalardagi ijodga bo‘lgan qiziqishlari va malakalarini yanada oshirishimiz mumkin. Bundan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘z ishlarini baholash mezonini joriy qilishimiz mumkin. Bunda odatda bir kunlik rangtasvir mashg‘uloti (4 soat) oxirida, mashg‘ulot tugashiga 10 minut qolganda, talabalar bajargan ishlarini bir tomonga terib qo‘yish

taklif qilinadi va har hafta navbati bilan talabalar orasidan 3 kishilik guruh tuzilib, ularga guruh talabalari bajargan ishga o‘z munosabatlarini bildirib, xato kamchiliklarini ko‘rsatishlarini taklif qilinadi. Shu yo‘sinda talabalar o‘zlari va guruhning boshqa talabalari bajarayotgan ishlarni mustaqil ravishda baholashadi. Bu bilan ularda o‘z kamchilik va yutuqlarini tahlil qilish, o‘z fikriga ega bo‘lish bilan birga kelajakdagi pedagogik faoliyatlarida asqotadigan o‘quvchilari ishlariga haqqoniy baho qo‘ya olish ko‘nikmalarini ham rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Bu holat mashg‘ulot uchun berilgan 4 hafta (16 soat) mobaynida portret ishlashning to‘rt bosqichida qaytariladi. Har bir bosqich tugagandan keyin barcha talabalar navbatma-navbat bu ishni bajarishadi va o‘zlari uchun ham ishning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarilayotganligini tahlil qilib borishadi. Ular o‘zlari o‘zlariga baho berishgandan keyin rangtasvir o‘qituvchisi ularning ishlarni baholash vaqtida qaysi joylarda qanday xato kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi haqida pedagog sifatida o‘z fikrini bildirib mashg‘ulotlarga yakun yasaydi. Talabalar bilan bunday usulda mashg‘ulotlarning tashkil etilishi, ularning bilimlarini yanada takomillashtirib, o‘zaro bahs munozara orqali olgan bilimlarni tahlil qilishni o‘rgatadi. Shu bilan birga bunday usulda mashg‘ulotlar olib borish guruh talabalari o‘rtasida sog‘lom raqobatli muhitni paydo qiladi. Malumki raqobat bor joyda o‘sish va rivojlanish bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kosterin N.P. Uchebnoe risovanie.-2-e izd., pererab. – M.: Prosveshenie,

1994, - 236 s..;

2. Rostovtsev N.N Uchebnoe risovanie. 2-e izd., pererab. – M.: prosveщenie,

1998, -270;

3. Boymetov B.B., Plastik anatomiya. Amaliy mashg‘ulotlar T. 2011. 5-b